

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI

“Ro'yhatga olindi”

MD-401

“31” mart 2026 yil

“Tasdiqlayman”

TDIU Samarqand filiali direktori

O. Murtazayev

2026 yil



“O'zbek tili va xorijiy tillar” kafedrası

**Bakalavriat ta'lim yo'nalishi rus guruhleri talabalari uchun
“O'zbek tili” fanidan yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish
bo'yicha**

DASTUR


Tuzuvchilar:

B.M.Mirсанov - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
O'zbek tili va xorijiy tillar kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

K.Yu.Mirfayziyeva - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali
O'zbek tili va xorijiy tillar kafedrasini katta o'qituvchisi

Mazkur Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "O'zbek tili va
xorijiy tillar" kafedrasining 2026-yil _____ dagi _____-sonli yig'ilish bayoni bilan
ma'qullangan.

Kafedra mudiri



B. Mirsanov

Mazkur Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali O'quv-uslubiy
Kengashining 2026-yil 25 03 dagi 8-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.
(№ 8)

Mazkur Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy Kengashining
2026-yil 25 03 dagi 8-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ 8)

MUNDARIJA

Kirish	4
I. Umumiy qoidalar	4
1. Bakalavriat barcha ta'lim yo'nalishlari rus guruhlari bitiruvchi talabalariga "O'zbek tili" fanidan qo'yiladigan umumiy kompetensiyalar.....	6
II. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi	6
2.1. Baholash mezoni.....	8
2.1. Ijtimoiy-gumanitar va ma'naviy-ma'rifiy mavzular.....	8
2.3. Davlat tilini bilsih darajasi, hujjatlat bilan ishlash ko'nikmasini tekshirish uchun savollar.....	9
2.4. Yakuniy davlat attestatsiyasi uchun variantlardan namuna	10
Adabiyotlar ro'yxati	11

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2001-yil 22-fevraldagi 46-sonli "O'zbek tili" fanidan davlat attestatsiyasini joriy etish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan Oliy ta'lim bakalavriat bosqichining dars mashg'ulotlari davlat tilidan boshqa tillarda olib boriladigan o'quv guruhlarida O'zbek tili fanidan davlat attestatsiyasi (imtihon) 2000-2001 o'quv yilidan boshlab joriy qilingan.

Ma'lumki, oliy ta'limning birinchi bosqich bakalavriat yo'nalishining rus guruhlarida "O'zbek tili" fani o'qitiladi. Unda talabalarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; og'zaki va yozma nutqda sohaviy terminlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish; ixtisoslikka oid matn tuzish, uni tahrir va tahlil qilish malakalarini hosil qilish; sohaviy hujjatlarni tuzish, shu jumladan, elektron hujjatlarni to'ldirish va rasmiylashtirish ko'nikmalarini shakllantirish kabi qator vazifalar maqsad qilingan.

Hozirgi kunda o'zbek tilining ijtimoiy mavqeyi tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda ot'liq davlat tiliga o'tilayotganligi barcha mutaxassislarining, millatidan qat'i nazar, o'zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida O'qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o'zgartirib, o'zbek tilini o'rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o'rta maktabda, akademik litsey va kollejlarda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan birga mutaxassislik bilan bog'liq bo'lgan nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish, O'zbek tilining boy imkoniyatlaridan o'z mutaxassisligi bo'yicha foydalanish, fikrni to'g'ri, aniq, izchil va mantiqli ifoda etishga o'rganish ko'zda tutiladi.

Davlat attestatsiyasining maqsadi ham talabalarning O'zbek tili fanini o'qish, o'rganish jarayonida egallagan bilim va ko'nikmalarini tekshirish, imtihonga tayyorgarlik ko'rishlari jarayonida olgan bilimlarini yana bir bor eslash, takrorlash, buning natijasida tanlagan ixtisosliklari doirasida davlat tilini yanada puxta egallashlariga ko'maklashish, shunigdek davlat tilida ish yuritishda so'z tanlash va so'z qo'llash imkoniyatlarini aniqlashva baholashdan iborat.

I. Umumiy qoidalar

1. Oliy ta'lim muassasalarida O'zbek tili fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.
2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.
3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
- talabalarning bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

-yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha talabalarga bakalavr darajasini berish masalasini hal qilish;

- komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur dastur hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida talabaga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan olti oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi

I. Bakalavriat barcha ta'lim yo'nalishlari rus guruhlari talabalariga "O'zbek tili" fanidan qo'yiladigan umumiy kompetensiyalar

- O'zbek tiliga mansub bo'lgan til oilasi va guruhi, o'zbek tilining fonetikasi va morfologiyasi, o'zbek tilining gap qurilishi haqida muayyan bilimga ega bo'lishi;

-o'zbek tilida so'zlarni tanlash va nutqda o'rinli va to'g'ri qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishi;

-o'zbek tilidagi so'zlarni imlo oidalariga muvofiq to'g'ri yoza olishi,

-matn tuzish va o'z sohasi doirasida fikrlarini o'zbek tilida bayon qila olishi;

- gapni to'g'ri tuza olish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

berilgan mavzular bo'yicha og'zaki va yozma mata shakllantira olish ko'nikma va malakasiga ega bo'lishi;

mavzu doirasida beriladigan testlarni uqishi va yecha olishi kabi kompetensiyalar "O'zbek tili" fani boyicha Davlat attestatsiyasini o'tkazish jarayonida talabalar bilimni baholash uchun asos bo'ladi.

II. Yakuniy davlat attestatsiyasini O'tkazish tartibi

Yakuniy davlat attestatsiyasining o'tkazilishi, fanlarning nomi talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan fanlar bo'yicha dars beruvchi professor-o'qituvchilar tomonidan savollar va ularni yoritishga yordam beruvchi tayanch tushunchalar ishlab chiqiladi hamda kafedra majlisida keng muhokama etilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi o'quv bo'limi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq, fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan so'ng o'tkaziladi va bu haqida talabalarga bir oy oldin ma'lum qilinadi.

Kafedra talabalarga yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi va unga qo'yiladigan talablar bo'yicha konsultatsiyalar tashkil etadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ishchi guruh tashkil etiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi savollari va ularni yoritishga yordam beruvchi tayanch tushunchalar fakultet dekani tomonidan ishchi guruh a'zolariga yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan vaqtdan bir soat oldin, maxsus konvertda taqdim etiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon javoblarining hajmi 1000-1200 so'zgacha deb belgilanadi. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish uchun 3 soat vaqt beriladi.

Ishchi guruh yakuniy davlat attestatsiya bo'yicha talabalarning yozgan daftarlarini belgilangan tartibda tekshiruvchilarga tarqatadi va natijalarini uch kun muddatda talabalarga ma'lum qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon daftarlarini tekshirishga va baholashga malakali professor-o'qituvchilar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari hamda ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish va tekshirishga jalb etilgan shaxslarga mehnat haqi byudjetdan tashqari mablag' yoki soatbay jamg'arma hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasini baholash mezonlari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan ishlab chiqiladi va barcha mutaxassislik kafedralariga yetkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon daftarlari 10% ni taqriz uchun Vazirlik tomonidan boshqa oliy ta'lim muassasalariga jo'natilishi nazarda tutiladi.

Talabalarning yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra, mazkur fandan bevosita dars bergan o'qituvchining reytingi belgilanadi hamda uni qo'shimcha ravishda moddiy va ma'naviy rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi.

Talabalarning yakuniy davlat attestatsiyasi bo'yicha imtihon javoblari ikki yil mobaynida kafedrada saqlanadi.

"O'zbek tili" fanidan yakuniy davlat attestatsiyasi yuqoridagi umumiy qoidalarda qat'iy rioya qilgan tarzda tashkil etiladi va o'tkaziladi:

-fan bo'yicha dars beruvchi professor-o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra majlisida keng muhokama etilib, tasdiqlangan yozma mata tuzish uchun tanlangan mavzular,

-Talabalar konvertni ochib, variantlarni tanlaydilar va filial o'quv-uslubiy bo'limi tomonidan tasdiqlanib, oldindan tayyorlab qo'yilgan maxsus daftarga yozadilar (testlarni tizim orqali yechadilar).

Baholash mezonlari

5 (A'lo): Tarjima to'liq, ravon va tushunarli. Matnning barcha ma'nolari rus tiliga to'g'ri tarjima qilingan.

4 (Yaxshi): Tarjima yaxshi, lekin ba'zi so'zlarning tarjimasi aniqroq berilmagan. Matnning asosiy ma'nosi saqlangan.

3 (Qoniqarli): Tarjimada ba'zi so'zlar noto'g'ri tarjima qilingan. Matnning ba'zi jihatlari yo'qotilgan yoki notanish ifodalar ishlatilgan.

2 (Qoniqarsiz): Tarjima noto'g'ri, ma'no yo'qotilgan. Grammatika va so'z tanlovi bilan muammolar mavjud.

2-savol bo'yicha talabalar berilgan matnni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiladilar. Unda talabalarning tarjimani yozma shaklda ifodalashda imlo qoidalarini bilish darajasi, so'z qo'llash va tanlash, nutqning kommunikativ sifatlariga asoslangan holda matn shakllantira olish ko'nikma va malakalari aniqlanadi.

5 (A'lo): Tarjima rus tilidan o'zbek tiliga mukammal tarzda amalga oshirilgan. Matnning barcha ma'no jihatlari to'g'ri o'tkazilgan, o'zbek tilining uslubi va talaffuzi saqlangan.

4 (Yaxshi): Tarjima yaxshi, lekin ba'zi qismlar yanada aniqlik bilan tarjima qilinishi kerak. Umumiy ma'no to'liq saqlangan.

3 (Qoniqarli): Tarjimada ba'zi qismlar noaniq yoki so'zlar noto'g'ri tanlangan. Matnning ba'zi qismlari yo'qotilgan yoki noaniq ishlatilgan.

2 (Qoniqarsiz): Tarjima noto'g'ri yoki noaniq, ba'zi muhim ma'no yo'qotilgan. Grammatika va so'z tanlovi bilan muammolar mavjud.

3-savolda talabalar iqtisodga oid atamalarni bilishlari va shu atamalar bilan gaplar tuza olishlari aniqlanadi.

5 (A'lo): Sohaga oid 5 ta atama aniq va to'g'ri tanlangan. Har bir atama to'g'ri ishlatilgan va mavzu bilan aloqali.

4 (Yaxshi): Atamalar yaxshi tanlangan, lekin ba'zi atamalar yanada aniqroq yoki kengroq ishlatilgan bo'lishi mumkin.

3 (Qoniqarli): Ba'zi atamalar noto'g'ri yoki noaniq tanlangan. Sohaga aloqasi yetishmaydi.

2 (Qoniqarsiz): Atamalar noto'g'ri tanlangan yoki ishlatilmagan.

4-savolda talabalar berilgan mavzuni so'zlab berishadi.

5 (A'lo): Talaba mavzuning barcha muhim jihatlarini qamrab olgan holda mavzuni keng va puxta yoritadi, misollar va asoslar bilan ta'minlaydi. Har bir fikrning o'ziga xos ma'nosi mavjud.

4 (Yaxshi): Talaba mavzuni yaxshi tushunadi va yoritadi, lekin ba'zi jihatlar yoki tafsilotlar yetishmaydi. Mavzuni yoritishda ayrim jihatlarini aniqroq yoki kengroq tushuntirishi mumkin.

3 (Qoniqarli): Talaba mavzuni umumiy tushunadi, ammo muhim jihatlar yoki tafsilotlar yetishmaydi. Mavzu haqida faqat asosiy ma'lumotlar beradi, lekin to'liq emas.

2 (Qoniqarsiz): Talaba mavzuni yaxshi tushunmagan. Mavzu yoritilmagan va fikrlar bir-birini to'ldirmagan.

5-savolda talabalar grammatik mavzu yuzasidan berilgan savolga javob beradilar.

5 (A'lo): Talaba grammatik mavzi yuzasidan berilgan savollarga to'liq va to'g'ri javob beradi. Javoblar aniq, izchil va to'g'ri bayon qilingan.

4 (Yaxshi): Talaba grammatik mavzi yuzasidan berilgan savollarga ko'pchiligiga to'g'ri javob beradi, lekin ba'zi xatolar mavjud.

3 (Qoniqarli): Talaba grammatik mavzi yuzasidan berilgan savollarning ba'zilariga to'g'ri javob beradi, lekin ba'zi savollarga noto'g'ri javob beradi.

2 (Qoniqarsiz): Talaba grammatik mavzi yuzasidan berilgan savollarga javob bermaydi, xatolar ko'p.

Ijtimoiy-gumanitar va ma'naviy-ma'rifiy mavzular:

1. O'zbekiston - yagona Vatan.
2. "O'zbek tili - Davlat tili"
3. Tarix va zamonamiz.
4. Muzeylar, o'tmish va kelajak orasidagi ko'priklar
5. Kelajak bilimli yoshlar qo'lida

6. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi.
7. Adabiyot - ma'naviyatning yuksak manbai.
8. Ommaviy ahborot vositalari.
9. Internet hayotimizda
10. O'zbekiston va jahon
11. XXI asrda innovatsiyalar
12. Davrimizning global muammolari.
13. Huquqiy madaniyat
14. O'zbekistonda oliy ta'lim
15. Bo'lajak kasbim.
16. Kasbim tarixi.
17. Kasb bayrami.
18. Ilm sari yo'l.
19. Nutq odobi.
20. Notiqlik san'ati.
21. Kasb etikasi.
22. Nutq odobi.
23. San'at va ma'naviyat.
24. Iqtisod va hayot
25. O'zbekiston - yagona Vatan.
26. "O'zbek tili - Davlat tili"
27. Tarix va zamonamiz.
28. Muzeylar, o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik
29. Kelajak bilimli yoshlar qo'lida
30. Adabiyot - ma'naviyatning yuksak manbai.
31. Muqimiy asarlarining iqtisodiyotdagi o'rni.
32. Ommaviy ahborot vositalari.
33. Internet hayotimizda
34. O'zbekiston va jahon
35. XXI asrda innovatsiyalar
36. Davrimizning global muammolari.
37. Huquqiy madaniyat
38. O'zbekistonda oliy ta'lim
39. Bo'lajak kasbim.
40. Kasbim tarixi.
41. Kasb bayrami.
42. Ilm sari yo'l.
43. Nutq odobi. Notiqlik san'ati. Kasb etikasi.
44. Nutq odobi. San'at va ma'naviyat.
45. Iqtisod va hayot

Davlat tilini bilsih darajasi, hujjatlat bilan ishlash ko'nikmasini aniqlash bo'yicha mavzular

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili bo'limlari va me'yorlari.
2. Orfoepiya qoidalari. Orfoepiya (talaffuz). Orfografiya (imlo). O'zbek tilining imlo qoidalari. Leksikologiya.
3. Atamalar va ularning vujudga kelishi. O'zbek tilida sinonimlar
4. Nutq uslublari.
5. Badiiy uslub va uning hususiyatlari.
6. Publisistik uslub va uning hususiyatlari.
7. Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.
8. Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari.

9. Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.
10. Maqola va uning turlari. Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.
11. Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.
12. Uslubiy hoslangan va uslubiy betaraf soʻzlar.
13. Soʻzlashuv uslubi va uning xususiyatlari.
14. Mutaxassislikka oid terminlar lugʻatini shakllantirish. Matn va uning koʻrinishlari.
15. Soha lugʻatlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.
16. Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.
17. Annotasiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.
18. Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar.
19. Matndagi termin va iboralarning maʼnosini izohlash.
20. Ish yuritish tili va uslubi.
21. Hujjat turlari va xususiyatlari.
22. Hujjatchilik tarihi.
23. Normativ (meʼyoriy) hujjat tushunchasi.
24. Elektron hujjatlar.
25. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.
26. Tashkiliy hujjatlarning turlari.
27. Shartnoma. Mehnat shartnomasi.
28. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari.
29. Ishonchnoma.
30. Tilxat. Tilxat matni.
31. Tushuntirish xati. Tushuntirish xatining turlari.
32. Buyruq. Farmoyish. Koʻrsatma.
33. Tarjimai hol.
34. Bildirgi.
35. Tavsifnoma.
36. Rasmiy va shahsiy ishonchnomalar.
37. Dalolatnoma.
38. Maʼlumotnoma turlari.
39. Bayonnomalarning turlari. Majlis bayoni.
40. Hisobot. Hisobot turlari. Oʻquv amaliyoti hisoboti.
41. Xizmat xatlarining turlari. Soʻrov xati.
42. Xizmat xatlarining turlari. Iltimos xati.
43. Xizmat xatlarining turlari. Javob xati.
44. Xizmat xatlarining turlari. Daʼvo xati.
45. Xizmat xatlarining turlari. Kafolat xati.

Yakuniy davlat attestatsiyasi uchun variantlardan namuna

“Oʻzbek tili” fanidan oʻtkaziladigan DAK variantlari 5 ta topshiriqdan iborat boʻladi:

I-savol: Matnni oʻzbek tilidan rus tiliga tarjima qiling.

Tarix arabcha – vaqtni aniqlash, oʻtmishni yozish maʼnosini bildiradi.

Mustaqillik yillarida, barcha ilm sohalarida boʻlgani kabi, tarix fanida ham yangilanishlar koʻzga tashlanmoqda. Avvalgi bir tomonlama yondashuv, sinfiy qarashlardan voz kechilib, oʻtmish voqealariga xolisona baho berish, obʼektiv dunyoqarashni sohaga tatbiq etish asosiy masalaga aylandi.

Zamonamiz yoshlari maʼnaviy meros qadim zamonlardan beri, ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan maʼnaviy boyliklar: siyosiy, falsafiy,

huquqiy, diniy qarashlar, axloq-odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlaridan bahramand bo'lishi uchun o'z milliy tarixni mukammal bilishi lozim. "Tarixsiz kelajak yo'q". Har bir avlod tarixni, ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, mavjud ma'naviy merosga tayanadi.

Istiqloq tufayli milliy madaniyatimiz, jahon taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan, buyuk bobolonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'lishga muyassar bo'ldi.

2-savol: Matni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.

Аральское море – уникальное озеро между крупных пустынь Средней Азии – Каракумов, Кызылкум, Устюрта, Приаральских Каракумов. Среди озёр земного шара Арал по величине занимает четвёртое место после Каспийского, Верхнего озера в Северной Америке и Виктории в Африке.

В последнее время Аральское море стало мелеть. Очень много воды забирают для народного хозяйства из Амударьи и Сырдарьи. Учёные давно предсказали, что Аральское море будет мелеть. Но никто не знал, что вокруг Арала начнётся опустынивание. Судьбой Арала стали заниматься учёные. Сейчас все знают, что очень важно сохранить уровень Арала.

3-savol: Sohaga oid 5 ta atama yozing va ular bilan gaplar tuzing.

4-savol: "O'zbek tili - O'zbekiston Respublikasining Davlat tilidir" mavzusini gapirib bering.

5-savol: Ish yuritish tili va uslubini tushuntiring.

1-savol bo'yicha talabalar berilgan matni tarjima o'zbek tilidan rus tiliga tarjima qiladilar. Unda talabalarning tarjimini yozma shaklda ifodalashda imlo qoidalarini bilish darajasi, so'z qo'llash va tanlash, nutqning kommunikativ sifatlariga asoslangan holda matn shakllantira olish ko'nikma va malakalari aniqlanadi.

2-savol bo'yicha talabalar berilgan matni tarjima rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiladilar. Unda talabalarning tarjimini yozma shaklda ifodalashda imlo qoidalarini bilish darajasi, so'z qo'llash va tanlash, nutqning kommunikativ sifatlariga asoslangan holda matn shakllantira olish ko'nikma va malakalari aniqlanadi.

Asosiy adabiyotlar

1. "O'zbek tili" (darslik). Kamalova M.N., Azimova U.A. TDIU, 2019y. 326 b.
2. O'zbek tili (o'quv qo'llanma). Lafasov U. Toshkent: ToshDSHI. 2016-y 532 b.
3. Dadaboev X.A., Xolmanova Z.T. "Turkiy tillarning qiyosiy -tarixiy grammatikasi". Toshkent - "Taffakur bo'stoni" 2015y.
4. "Yozuv texnikasi va og'zaki nutq" (darslik). Azimova X.I., Fayzullaeva SH.M., Boltabaeva G.I., Azimova U.A. - TDIU. 2014y.
5. O'zbek tili (darslik). Normatova SH., Abduraxmonova M., Toshkent: JIDU, 2014 y. 192 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Asilova G.A. O'zbek tili. Darslik. - T.: "Yosh kuch", 2018. - 436 b.

2. Asilova G.A., Qudriddinova N.D. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T.: “Yosh kuch”, 2018. – 200 b.
3. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O'zbek tili: Darslik (Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarining bakalavr bosqichi umumiy guruh talabalari uchun) /; T.: "Excellent Polygraphy" 2020.-528 b.
- 4.Samandarova G.Y. O'zbek tili: o'quv qo'llanma. - Buxoro : "Sadriiddin Salim Buxoriy" Durdoni nashriyoti, 2023. - 192 b.3.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Boltayeva I.T., Ayxodjayeva M.S. O'zbek tili: o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Lesson press" nashriyoti, 2020. – 258 b.
2. Kamola M.N., Azimova U.A., Qodirova F.Q. Ishbilarmon o'zbek tili. o'quv qo'llanma. - Toshkent: TDIU. 2018. – 100 b.
3. Mirsanov B.M. O'zbek tili terminologiyasida ikkilamchi nomlashlar va ularning motivlashuvi. Monografiya.-Samarqand. "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti.2023. – 154 b.

Axborot manbalari

1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. <https://my.gov.uz/> - - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. <http://library.ziyonet.uz/> - ta'lim portali
- 4.www.uza.uz
- 5.www.dersimiz.com
- 6.www.ziyonet.uz
- 7.<http://teachyourselfuzbek.com/resources/courseboks/> – Самоучитель узбекского языка.
- 8.<http://solver.uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик.
- 9.http://sahifa.tj/rusko_uzbekskij_razgovornik.aspx – Русско-узбекский разговорник.
- 10.http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx – Узбекско-русский переводчик.